



**O‘G‘UZ SHEVALARIDA AFFIKSAL BIRLIKLARNING POLISEMANTIK
XUSUSIYATLARI: SEMANTIK-FUNKSIONAL TAHLIL VA ILMIY TASNIF**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.040>

Sa‘dullayeva Mohira Sobirovna

Navoiy davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘g‘uz shevalarida uchraydigan ko‘p ma’noli so‘z yasovchi hamda lug‘aviy shakl yasovchi affikslarning semantik va funksional xususiyatlari tadqiq etiladi. Polisemantik affikslarning so‘z yasash jarayonidagi ishtiroki, ularning turli so‘z turkumlarini hosil qilishdagi roli aniq misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiy til va sheva doirasida qo‘shimchalarning qo‘llanish xususiyatlari, ularning semantik ko‘lami hamda funksional farqlari qiyosiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘g‘uz shevalarida affiksali polisemiya hodisasining til tizimidagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sheva, o‘g‘uz shevasi, polisemiya, affiksali polisemiya, so‘z yasovchi affikslar, lug‘aviy shakl yasovchi affikslar, yasama so‘z, so‘z yasalishi, so‘z turkumlari, ko‘p ma’nolilik, adabiy til.

Аннотация. В данной статье исследуются семантические и функциональные особенности многозначных словообразовательных и формообразующих аффиксов, характерных для огузских говоров. Анализируется участие полисемантических аффиксов в процессе словообразования, а также их роль в образовании различных частей речи на основе конкретных примеров. Кроме того, в сопоставительном аспекте рассматриваются особенности функционирования аффиксов в литературном языке и диалектной речи, их семантический объем и функциональные различия. Результаты исследования способствуют выявлению места и значения аффиксальной полисемии в языковой системе огузских говоров.

Ключевые слова: диалект, огузский диалект, полисемия, аффиксальная полисемия, словообразовательные аффиксы, лексико-формообразующие аффиксы, производное слово, словообразование, части речи, многозначность, литературный язык.

Abstract. This article examines the semantic and functional characteristics of polysemous word-forming and lexical form-building affixes found in Oghuz dialects. The participation of polysemantic affixes in the word-formation process and their role in deriving

different parts of speech are analyzed on the basis of concrete examples. In addition, the specific features of affix usage in the literary language and dialectal speech, as well as their semantic scope and functional differences, are comparatively investigated. The results of the study contribute to identifying the place and significance of affixal polysemy within the linguistic system of Oghuz dialects.

Keywords: dialect, Oghuz dialect, polysemy, affixal polysemy, word-forming affixes, lexical form-building affixes, derived word, word formation, parts of speech, semantic multiplicity, literary language.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda so‘z yasalishi tizimi va affiksial birliklarning funksional imkoniyatlarini tadqiq etish til strukturasi hamda uning ichki rivojlanish mexanizmlarini yoritishda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, affikslarning ko‘p ma’nolilik xususiyati til birliklarining semantik taraqqiyoti, ularning nutq jarayonidagi funksional faolligi hamda morfologik tizimdagi o‘rnini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, affiksial polisemiya hodisasini dialektal material asosida o‘rganish tilning tabiiy taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

O‘g‘uz shevalari morfologik va semantik jihatdan yuqori darajadagi harakatchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu shevalarda qo‘llaniladigan ayrim affiksial birliklar nafaqat yangi leksik birliklar hosil qilishda, balki grammatik shakllarni ifodalash, so‘z turkumlari o‘rtasidagi semantik munosabatlarni belgilash hamda nutq jarayonida ma’no nozikliklarini yuzaga chiqarishda ham faol ishtirok etadi. Natijada bitta affiks bir necha semantik qatlamni mujassamlashtirgan holda kontekstga bog‘liq ravishda turlicha ma’no yuklamasini amalga oshiradi. Bu holat affikslarning faqat shakliyl birlik sifatida emas, balki mustaqil semantik-funksional hodisa sifatida tavsiflanishini taqozo etadi.

Shuningdek, adabiy til va o‘g‘uz shevalari o‘rtasida affiksial tizimda kuzatiladigan tafovutlar, ayrim qo‘shimchalarning shevalarda kengroq semantik maydonga ega bo‘lishi yoki adabiy tilda nisbatan cheklangan vazifada qo‘llanishi dialektal farqlarning mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat affikslarning nafaqat morfologik shakl sifatida, balki semantik va funksional jihatdan ham qiyosiy o‘rganilishini zarur qiladi. Ayniqsa, affikslarning so‘z yasovchi hamda lug‘aviy shakl yasovchi vazifalari o‘rtasidagi chegaraning ko‘p hollarda noaniqlashuvi ularni maxsus ilmiy tahlil asosida tasniflash ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolada o‘g‘uz shevalarida uchraydigan affiksial birliklarning polisemantik xususiyatlari semantik-funksional nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning ma’no qatlamlari aniqlanadi hamda ilmiy asosda tasniflanadi. Tadqiqot jarayonida affikslarning kontekstual ma’nolari, ularning so‘z turkumlari bilan munosabati hamda so‘z yasalishidagi ishtiroki tizimli ravishda yoritiladi. Olingan natijalar o‘g‘uz shevalarida affiksial polisemiya hodisasining til tizimidagi o‘rnini aniqlashga, affikslarning semantik imkoniyatlarini

belgilashga hamda o‘zbek dialektologiyasi va so‘z yasalishi nazariyasini yangi ilmiy xulosalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilshunosligida affiksial tizim va so‘z yasalishi masalalari uzoq yillar davomida izchil tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarda affikslarning struktur xususiyatlari, ularning grammatik vazifalari hamda so‘z yasash jarayonidagi ishtiroki keng yoritilgan bo‘lsa-da, affikslarning ko‘p ma’nodlilik xususiyati, ayniqsa dialektal material asosida tizimli o‘rganilishi hanuzgacha yetarli darajada kompleks tahlil obyektiga aylantirilmagan. Mavjud tadqiqotlarda affiksial birliklar ko‘proq shakliy va funksional jihatdan tavsiflanib, ularning semantik qatlamlari ikkilamchi masala sifatida yoritilganini kuzatish mumkin.

O‘zbek dialektologiyasida Xorazm va o‘g‘uz shevalariga oid tadqiqotlar orasida F. Abdullayevning “Xorazm shevalari” asari muhim manba sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tadqiqotda o‘g‘uz lahjasiga xos leksik va grammatik birliklar, jumladan, ayrim affikslarning semantik kengayishi hamda funksional faolligi faktik materiallar asosida qayd etilgan. Muallif ayrim qo‘shimchalarning adabiy tilga nisbatan shevada faolroq qo‘llanishini va ularning kengroq semantik yuklamaga ega ekanini ko‘rsatadi. Biroq ushbu asarda affikslarning ko‘p ma’nodlilik xususiyati mustaqil ilmiy muammo sifatida ajratilmagan hamda ular maxsus semantik tasnif asosida tahlil qilinmagan.

O‘g‘uz shevalarining so‘z yasash tizimi A. Allaberdiyevning “Buxoro o‘g‘uz shevalarining til xususiyatlari”ga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasining morfologiyaga oid bobida muayyan darajada yoritilgan. Unda hududda qo‘llaniladigan lug‘aviy qo‘shimchalar, ularning so‘z yasovchi imkoniyatlari va turli so‘z turkumlarini hosil qilishdagi roli haqida muhim kuzatishlar berilgan. Biroq affikslarning polisemantik xususiyatlari asosan misollar doirasida tilga olinib, ularning ma’no qatlamlari ilmiy tasnif darajasida chuqur tahlil etilmagan.

Affiksial polisemiya hodisasi umumiy semantik muammo sifatida M. Mirtojiyevning “O‘zbek tilida polisemiya” asarida muayyan darajada yoritilgan bo‘lib, unda so‘zlarning ko‘p ma’nodliliigi, ma’no taraqqiyoti va semantik siljish jarayonlari nazariy jihatdan izohlanadi. Shuningdek, umumiy tilshunoslik va so‘z yasalishi nazariyasi A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev kabi olimlarning tadqiqotlarida ilmiy asoslangan holda talqin etilgan. Ularning ishlarida polisemiya, ko‘p funksiyalilik va affiksial omonimiya tushunchalari farqlab ko‘rsatiladi. Biroq mazkur qarashlar asosan adabiy til materiali asosida shakllantirilgan bo‘lib, dialektal affikslar doirasida maxsus qo‘llanilmagan.

Turkiy tillar doirasida affikslarning semantik rivoji masalalari ham muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lib, bunday tadqiqotlar affiksial ma’nolarning tarixiy ildizlarini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishdagi ishlar ko‘proq diaxron yondashuv asosida olib borilib, affiksial polisemiya hodisasining sinxron holati, ayniqsa dialektal materialdagi namoyon bo‘lishi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Shu jihatdan, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, affikslarning ko‘p ma’nodlilik xususiyati nazariy jihatdan e’tirof etilgan bo‘lsa-da, ularning o‘g‘uz shevalari

materiali asosida semantik-funksional nuqtayi nazardan tizimli tahlili va ilmiy tasnifi hozirgacha alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Mazkur tadqiqotda aynan dialektal material asosida affiksali polisemiya hodisasini kompleks tahlil qilish, affikslarning ma‘no qatlamlarini aniqlash hamda ularni ilmiy tasnif asosida umumlashtirish asosiy vazifa sifatida belgilab olinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ilmiy xulosalarga kelish uchun an‘anaviy va zamonaviy lingvistik yondashuvlar uyg‘unligi asosida bir qator metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning yetakchi metodi sifatida deskriptiv (tavsifiy) metod qo‘llanilib, o‘g‘uz shevalarida uchraydigan ko‘p ma‘noli affikslar mavjud til materialida tizimli ravishda tavsiflandi. Ushbu metod yordamida affikslarning shakliyl tuzilishi, ularning nutq jarayonidagi qo‘llanish doirasi hamda morfologik tizimdagi o‘rni aniqlab olindi.

Semantik tahlil metodi orqali affikslarning turli kontekstlardagi ma‘nolari ochib berilib, ularning polisemantik tuzilishi ichki semantik qatlamlar nuqtayi nazaridan izchil tahlil qilindi. Bunda affikslarning asosiy va ikkilamchi ma‘nolari, shuningdek, kontekstga bog‘liq holda yuzaga keladigan semantik siljishlari farqlanib, ularning ma‘no rivoji izohlandi. Har bir affiksning so‘z yasovchi hamda lug‘aviy shakl yasovchi funksiyalari alohida ajratilib, bu ikki yo‘nalish o‘rtasidagi semantik bog‘liqlik va chegaralarning o‘zaro munosabati tizimli ravishda ko‘rib chiqildi.

Qiyosiy metod asosida o‘g‘uz shevalarida qo‘llaniladigan affikslarning semantik va funksional xususiyatlari adabiy til materiallari bilan solishtirildi. Ushbu metod yordamida affikslarning adabiy tilda saqlanib qolgan ma‘nolari bilan shevalarda shakllangan yoki kengaygan ma‘no qatlamlari aniqlanib, ularning dialektal xususiyatlari ilmiy asosda tavsiflandi. Natijada ayrim affikslarning faqat shevaga xos semantik yuklamalari hamda adabiy tilda cheklangan holda qo‘llaniladigan jihatlari asoslab berildi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida lingvistik kuzatish metodi orqali affikslarning tabiiy nutqdagi qo‘llanish holatlari qayd etilib, ular real kommunikativ vaziyatlar asosida tahlil qilindi. Tasniflash metodi yordamida esa ko‘p ma‘noli affikslar ularning semantik va funksional belgilariga ko‘ra guruhlariga ajratildi hamda ichki tipologik xususiyatlari belgilandi. Bu jarayonda affikslarning polisemantik tuzilishi tizimlilik tamoyili asosida yoritildi.

Tadqiqot materialida o‘g‘uz shevalari vakillari bilan olib borilgan suhbatlar, mavjud dialektologik tadqiqotlar, shuningdek, lug‘at manbalari asosida jamlandi. To‘plangan til birliklari kontekstual jihatdan tekshirilib, ularning semantik talqini ilmiy mezonlar asosida izohlandi. Natijada affiksali polisemiya hodisasining dialektal materialdagi namoyon bo‘lishi empirik va nazariy asosda umumlashtirildi.

Natija va muhokamalar. *Ko‘p ma‘noli so‘z yasovchi qo‘shimchalar. -əki // -aqi sifat yasovchi qo‘shimcha.* 1) otdan sifat yasaydi: y ə l ə n + ə k 1 = y ə l ə n ə k 1 (yolg‘onaki), a ğ ĩ z + a q ĩ = a ğ z a q ĩ, y ü z + ə k 1 = y ü z ə k 1, q a l i p + a q ĩ = q a l v a q ĩ (qalbaki), j 1 m + ə k 1 = j 1 m ə k 1, h ə z 1 l + ə k 1 = h ə z 1 l ə k 1, d ə m + ə k 1 = d ə m ə k 1; 2) sifatdan sifat yasaydi: x a m + ə k 1 = x a m ə k 1, z ə r + ə k 1 = z ə r ə k 1, d o q + a q ĩ = d o q a q ĩ, ü z ü

$n + \text{ə} k_1 = \text{ü} z \text{ü} n \text{ə} k_1$; 3) fe’ldan belgi-xususiyat yasovchi sifat yasaydi: $b u z + a q \ddot{i} = b u z a q \ddot{i}$, $\text{ç} a p + a q \ddot{i} = \text{ç} a p a q \ddot{i}$; 4) ravishdan xususiyat bildiruvchi sifat yasaydi: $t e k t i r + a k i = t e k t i r a k i$, $b u r u n + \text{ə} k_1 = b u r u n \text{ə} k_1$; 5) taqlidiy so‘zlardan xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar yasaydi: $j \ddot{i} r t + a q \ddot{i} = j \ddot{i} r t a q \ddot{i}$, $\text{ş} \text{ö} r t + a q \ddot{i} = \text{ş} \text{ö} r t a q \ddot{i}$, $p a r t + a q \ddot{i} = p a r t a q \ddot{i}$ kabi.

-gı // -kı // -qı // -g‘i ot yasovchi qo‘shimcha. 1) fe’l asoslaridan narsa-obyekt va qurol otlarini yasaydi: $\text{ç} a p + q \ddot{i} = \text{ç} a p q \ddot{i}$, $y u v + \text{ğ} \ddot{i} = y u v \text{ğ} \ddot{i}$, $s \ddot{u} r + g_1 = s \ddot{u} r g_1$, $y a p + q \ddot{i} = y a p q \ddot{i}$, $b u r + \text{ğ} \ddot{i} = b u r \text{ğ} \ddot{i}$, $y a r + \text{ğ} \ddot{i} = y a r \text{ğ} \ddot{i}$; 2) fe’l asosida mavhum otlar yasaydi: $g \ddot{u} l + k_1 = g \ddot{u} l k_1$, $d e p + k_1 = d e p k_1$, $q a p + q \ddot{i} = q a p q \ddot{i}$, $s \text{ö} v + g_1 = s \text{ö} v g_1$, $e z + g_1 = e z g_1$, $b e l + g_1 = b e l g_1$ kabi.

Bu qo‘shimchalar omonimlik xususiyatga ham ega bo‘lib, sifat turkumiga tegishli so‘zlarni yasab, polisemantik xususiyatni yuzaga keltiradi. 1) o‘ringa munosabat va xoslikni ifodalovchi sifatlar yasaydi: $d e \text{ş} + k_1 = d e \text{ş} k_1$, $a \text{ş} a q + q \ddot{i} = a \text{ş} a q q \ddot{i}$, $y o q a r \ddot{i} + g_1 = y o q a r \ddot{i} g_1$, $o r t \text{ə} + k_1 = o r t \text{ə} k_1$, $q \ddot{i} v l a + q \ddot{i} = q \ddot{i} v l a q \ddot{i}$, $b i y \text{ə} n + k_1 = b i y \text{ə} n k_1$; 2) paytga munosabat va xoslikni anglatadi: $n a m a z \text{ş} a m + k \ddot{i} = n a m a z \text{ş} a m k \ddot{i}$, $d \ddot{u} n i n + g_1 = d \ddot{u} n i n g_1$, $t \ddot{i} r a m \text{ö} + q \ddot{i} = t \ddot{i} r a m \text{ö} q \ddot{i}$, $q \ddot{i} \text{ş} + q \ddot{i} = q \ddot{i} \text{ş} q \ddot{i}$, $b i l d i r + k_1 = b i l d i r k_1$, $\text{ə} r t \text{ə} n + k_1 = \text{ə} r t \text{ə} n k_1$ kabi.

-mā // -ma sifat yasovchi qo‘shimcha. 1) shevada o‘timli (buyruq) fe’llariga qo‘shilib, ish-harakat natijasida hosil bo‘lgan belgini anglatuvchi sifatlar yasaydi: $\text{ç} a p + m a = \text{ç} a p m a$ (go‘sht), $q u y + m a = q u y m a$ (aql), $s \ddot{u} y + m \text{ə} = s \ddot{u} y m \text{ə}$ (qiz), $d o \text{ğ} + m a = d o \text{ğ} m a$ (aql), $d \ddot{u} r t + m \text{ə} = d \ddot{u} r t m \text{ə}$ (aql), $q \ddot{i} z + m a = q \ddot{i} z m a$ (kishi), $j o r q \ddot{i} r a + m a = j o r q \ddot{i} r a m a$ (yoz); 2) o‘timsiz fe’llarga qo‘shilib, xususiyat, xossa, holat, shakl, usul anglatuvchi sifatlar yasaydi: $q a y n a t + m a = q a y n a t m a$ (sho‘rva), $h a v l i q + m a = h a v l i q m a$ (odam), $e z + m \text{ə} = e z m \text{ə}$ (odam), $ch o \text{ğ} l a n + m a = ch o \text{ğ} l a n m a$ (lampa), $b a s + m a = b a s m a$ (qog‘oz), $b \ddot{u} r \text{ə} + m \text{ə} = b \ddot{u} r \text{ə} m \text{ə}$ (ko‘ylak); 3) o‘g‘uz o‘zbek shevalarida ham taqlidiy so‘zlardan **-illa // - illi, -üllə // - ulla** bilan yasalgan fe’llarga qo‘shilib, xususiyat bildiruvchi sifat hosil qiladi: $\text{ğ} \ddot{i} r \text{ç} \ddot{i} l l a + m a = \text{ğ} \ddot{i} r \text{ç} \ddot{i} l l a m a$ (yosh), $d a \text{ğ} \ddot{i} l l a + m a = d a \text{ğ} \ddot{i} l l a m a$ (odam), $\text{ğ} \text{ö} v u l l a + m a = \text{ğ} \text{ö} v u l l a m a$ (o‘t), $g \ddot{u} p \ddot{u} l l \text{ə} + m \text{ə} = g \ddot{u} p \ddot{u} l l \text{ə} m \text{ə}$ (qor), $l a n q \ddot{i} l l a + m a = l a n q \ddot{i} l l a m a$ (yog‘och) kabi.

-dar // -dər // -dör sifat yasovchi qo‘shimcha. O‘g‘uz shevalarida, asosan, ot turkumidagi so‘zlardan polisemantik sifatlar yasaydi. 1) otlarga qo‘shilib, shu so‘z asosidan anglatgan narsaga egalikni va ma’nodagi narsa yoki hodisaning egaligini bildiradi: $a v r o + d \text{ö} r = a v r o d \text{ö} r$, $j \ddot{i} l a v + d a r = j \ddot{i} l a v d a r$, $m i n n \text{ə} t + d \text{ə} r = m i n n \text{ə} t d \text{ə} r$, $v a p a + d a r = v a p a d a r$, $s o v a p + d \text{ö} r = s o v a p d \text{ö} r$, $e y y a + d a r = e y y a d a r$, $a y \ddot{i} p + d a r = a y \ddot{i} p d a r$; 2) so‘z asosidan narsa yoki xususiyatining ortiqligini, kattaligini ifodalovchi sifatlar yasaydi: $e t + d \text{ö} r = e t d \text{ö} r$, $p u l + d a r = p u l d a r$, $\ddot{u} n \ddot{u} m + d \text{ə} r = \ddot{u} n \ddot{u} m d \text{ə} r$, $t \text{ə} n + d \text{ə} r = t \text{ə} n d \text{ə} r$, $h \text{ə} s i l + d \text{ə} r = h \text{ə} s i l d \text{ə} r$, $g \ddot{u} l + d \text{ə} r = g \ddot{u} l d \text{ə} r$, $\text{ş} i r \text{ə} + d \text{ə} r = \text{ş} i r \text{ə} d \text{ə} r$ kabi. O‘g‘uz o‘zbeklarida bu qo‘shimchaga sinonim sifatida **-li, -ser, -ba** sifat yasovchi affikslaridan ham foydalanadi.

-la // -la fe’l yasovchi qo‘shimcha. Bu yasovchi qo‘shimcha shevada deyarli barcha so‘z turkumlaridan (fe’l turkumi bundan mustasno) fe’lga tegishli so‘zlarni yasaydi: 1) otlarga qo‘shilib, asosdan anglashilgan narsaga aloqador ishni yuzaga keltirish, amalga oshirish ma’nolarini ifodalovchi fe’llar yasaydi: $1z + l\text{ə} = 1z\ l\text{ə}$, $m\ddot{i} : x + l\text{a} = m\ddot{i} : x\ l\text{a}$, $a\check{g}\ddot{i}z + l\text{a} = a\check{g}\ddot{i}z\ l\text{a}$ (og‘izga olmoq), $pa\ y + l\text{a} = pa\ y\ l\text{a}$ (bo‘lmoq, taqsim qilmoq), $be\ \check{c}\ \text{ə} + l\text{ə} = be\ \check{c}\ \text{ə}\ l\text{ə}$ (bolalamoq), $g\ \text{ə}\ k + l\text{ə} = g\ \text{ə}\ k\ l\text{ə}$ (tikmoq) kabi. 2) sifat va ravishlarga qo‘shilib, asosdan anglashilgan holatga, tusga ega bo‘lish ma’nolarini bildiruvchi fe’llar yasaydi: $p\ddot{i}y\ a\ d\text{a} + l\text{a} = p\ddot{i}y\ a\ d\text{a}\ l\text{a}$, $be\ m\ \text{e}\ n + l\text{ə} = be\ m\ \text{e}\ n\ l\text{ə}$ (ko‘paytirmoq), $do\ \check{g}\ddot{r}\ddot{i} + l\text{a} = do\ \check{g}\ddot{r}\ddot{i}\ l\text{a}$, $il\ \text{ə}\ r\ i + l\text{ə} = il\ \text{ə}\ r\ i\ l\text{ə}$ (ilgarilamoq), $q\ \text{ə}\ r\ \text{ə} + l\text{a} = q\ \text{ə}\ r\ \text{ə}\ l\text{a}$, $be\ y\ i\ k + l\text{ə} = be\ y\ i\ k\ l\text{ə}$ (balandlamoq), $q\ \ddot{i}\ z\ \ddot{i}\ l + l\text{a} = q\ \ddot{i}\ z\ \ddot{i}\ l\ l\text{a}$, $\check{z}\ i\ l\ l\ i + l\text{ə} = \check{z}\ i\ l\ l\ i\ l\text{ə}$ (jinnilamoq); 3) undov va taqlidiy so‘zlarga qo‘shilib, ularga oid his-hayajon, buyruq-xitob, murojaat, tovush yoki biror holat kabilarni amalga oshirish va bajarish ma’nolarini anglatuvchi fe’llarni yasaydi: $u\ x + l\text{a} = u\ x\ l\text{a}$, $v\ \text{ə}\ y + l\text{ə} = v\ \text{ə}\ y\ l\text{ə}$, $i\ y + l\text{ə} = i\ y\ l\text{ə}$, $he\ t + l\text{ə} = he\ t\ l\text{ə}$, $k\ i\ sh + l\text{ə} = k\ i\ sh\ l\text{ə}$; $t\ \text{ə}\ p\ i\ r + l\text{ə} = t\ \text{ə}\ p\ i\ r\ l\text{ə}$, $p\ \text{ə}\ p\ddot{i}\ r + l\text{a} = p\ \text{ə}\ p\ddot{i}\ r\ l\text{a}$, $t\ \text{a}\ q\ddot{i}\ r + l\text{a} = t\ \text{a}\ q\ddot{i}\ r\ l\text{a}$, $d\ i\ d + l\text{ə} = d\ i\ d\ l\text{ə}$, $\check{c}\ \text{ə}\ y + l\text{ə} = \check{c}\ \text{ə}\ y\ l\text{ə}$, $b\ i\ p + l\text{ə} = b\ i\ p\ l\text{ə}$ kabi.

Ko‘p ma’noli lug‘aviy shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar (sintaktik qo‘shimchalar ham shu qo‘shimchalar tarkibida nazarda tutildi). O‘g‘uz o‘zbeklari nutqida lug‘aviy qo‘shimchalarning ishlatilishi o‘zbek adabiy tilidan tubdan farq qilmaydi. Ammo adabiy tilning kuchli ta’siri ba’zi qo‘shimchalarning ma’no ottenkalari torayishiga sabab bo‘lishiga olib kelmoqda. O‘g‘uz o‘zbeklarida **-a // -ə** fe’llarga xos lug‘aviy qo‘shimcha faol polisemantik affiks hisoblanadi: 1) shevada fe’llarga qo‘shilib, harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi va intensivlik kabi ma’nolarni ifodalaydi: $b\ddot{u}\ r + \text{ə} = b\ddot{u}\ r\ \text{ə}$, $\ddot{u}\ r\ i\ n + \text{ə} = \ddot{u}\ r\ i\ n\ \text{ə}$; 2) takror va juft fe’l asoslarga qo‘shilib, harakatning belgisini bildiruvchi ravishdosh shaklini hosil qiladi: $y\ddot{u}\ g\ddot{u}\ r + \text{ə} - y\ddot{u}\ g\ddot{u}\ r + \text{ə} = y\ddot{u}\ g\ddot{u}\ r\ \text{ə} - y\ddot{u}\ g\ddot{u}\ r\ \text{ə}$, $b\ \text{ə}\ k + \text{ə} - b\ \text{ə}\ k + \text{ə} = b\ \text{ə}\ k\ \text{ə} - b\ \text{ə}\ k\ \text{ə}$, $a\check{g}\ddot{d}\text{a}\ r + \text{a} - a\check{g}\ddot{d}\text{a}\ r + \text{a} = a\check{g}\ddot{d}\text{a}\ r\ \text{a} - a\check{g}\ddot{d}\text{a}\ r\ \text{a}$, $b\ i\ l + \text{ə} - g\ \text{ə}\ r + \text{ə} = b\ i\ l\ \text{ə} - g\ \text{ə}\ r\ \text{ə}$; 3) shevada takror fe’llarga qo‘shilib, buyruq-holat kuchaytiruv fe’llarini yasaydi: $q\ \text{a}\ \check{c} + \text{a} - q\ \text{a}\ \check{c} = q\ \text{a}\ \check{c}\ \text{a}\ q\ \text{a}\ \check{c}$, $ya\ p + \text{a} - ya\ p = ya\ p\ \text{a}\ ya\ p$, $q\ o\ v + \text{a} - q\ o\ v = q\ o\ v\ \text{a}\ q\ o\ v$, $i\ y + \text{ə} - i\ y = i\ y\ \text{ə}\ i\ y$ kabi.

Buxoro o‘g‘uzlari nutqida qo‘llanadigan **-jīq, -jik (-chiq)** qo‘shimchasi adabiy tildagi -gina qo‘shimchasi o‘rnida yoki unga sinonim sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari, -tepa affiksoid bilan ham otlarda sinonimlikni ham tashkil etgan, ya’ni *Somonjiq, Belendjiq, Gazajik* kabi o‘rin otlarini ham ifodalagan. Bunday holatni ko‘pgina lug‘aviy qo‘shimchalarda kuzatishimiz mumkin.

-raq // -rək qo‘shimchasi. O‘g‘uz shevalarida belgi ifodalaydigan sifat, ravish, sifatdosh va ravishdoshlarga qo‘shiladi. 1) sifatlarga qo‘shilib, belgi ma’nosining me’yoriy darajaga yetmaganligini, bir oz kamligini, qiyoslash-chog‘ishtirishni anglatuvchi shakl yasovchi qo‘shimcha: $ya\ x\ \check{s}\ddot{i} + r\ \text{a}\ q = ya\ x\ \check{s}\ddot{i} + r\ \text{a}\ q$, $q\ o\ l\ \text{a}\ y + r\ \text{a}\ q = q\ o\ l\ \text{a}\ y\ r\ \text{a}\ q$, $g\ \text{ə}\ k + r\ \text{ə}\ k = g\ \text{ə}\ k\ r\ \text{ə}\ k$, $d\ddot{u}\ r\ \ddot{u}\ s + r\ \text{ə}\ k = d\ddot{u}\ r\ \ddot{u}\ s + r\ \text{ə}\ k$, $s\ o\ v\ u\ q + r\ \text{a}\ q = s\ o\ v\ u\ q\ r\ \text{a}\ q$; 2) shevada ravishning qiyosiy darajasini hosil qiladi: $y\ \text{ə}\ n\ i + r\ \text{ə}\ k = y\ \text{ə}\ n\ i\ r\ \text{ə}\ k$, $s\ \text{ə}\ n + r\ \text{ə}\ k = s\ \text{ə}\ n\ r\ \text{ə}\ k$, $\text{ə}\ r\ t\ \text{ə}\ n + r\ \text{ə}\ k = \text{ə}\ r\ t\ \text{ə}\ n\ r\ \text{ə}\ k$, $q\ o\ v\ \ddot{i} + r\ \text{a}\ q = q\ o\ v\ \ddot{i}\ r\ \text{a}\ q$; 3) sifatdoshlarga

qo‘shilib, qiyosiy darajani yuzaga keltiradi: $q\ddot{i}y\ n\ a\ l\ a\ n + r\ a\ q = q\ddot{i}y\ n\ a\ l\ a\ n\ r\ a\ q$, $b\ o\ y\ o\ n\ o\ n + r\ o\ q = b\ o\ y\ o\ n\ o\ n\ r\ o\ k$, $s\ddot{u}\ v\ o\ \check{s}\ o\ n + r\ o\ k = s\ddot{u}\ v\ o\ \check{s}\ o\ n\ r\ o\ k$, $k\ o\ y\ o\ n + r\ o\ k = k\ o\ y\ o\ n\ r\ o\ k$; 4) ravishdoshlarga qo‘shilib, ish-harakatning darajasini ifodalab keladi: $q\ddot{i}z\ \check{i}\ \check{s}\ \check{i}\ p + r\ a\ q = q\ddot{i}z\ \check{i}\ \check{s}\ \check{i}\ p\ r\ a\ q$, $q\ddot{i}z\ a\ r\ \check{i}\ p + r\ a\ q = q\ddot{i}z\ a\ r\ \check{i}\ p\ r\ a\ q$, $g\ddot{u}\ l\ \ddot{u}\ p + r\ a\ k = g\ddot{u}\ l\ \ddot{u}\ p\ r\ a\ k$, $q\ddot{i}y\ z\ \check{g}\ a\ n\ \check{i}\ p + r\ a\ q = q\ddot{i}y\ z\ \check{g}\ a\ n\ \check{i}\ p\ r\ a\ q$, $g\ddot{u}\ y\ m\ o\ n\ \check{i}\ p + r\ a\ k = g\ddot{u}\ y\ m\ o\ n\ \check{i}\ p\ r\ a\ k$ kabi.

-lar // -lar qo‘shimchasi. O‘zbek adabiy tilida omonim va ko‘p ma’nolilik xususiyati bilan ajralib turuvchi ko‘plik affiksi o‘g‘uz shevalarida mahsuldor qo‘shimcha hisoblanadi. 1) otlarga qo‘shilib, narsa-predmetning ortiqligini, ya’ni noaniq ko‘plikni yasaydi: $n\ o\ n + l\ a\ r = n\ o\ n\ l\ a\ r$, $d\ a\ r\ a\ x + l\ a\ r = d\ a\ r\ a\ x\ l\ a\ r$, $m\ a\ : \check{s}\ \check{i}\ n + l\ a\ r = m\ a\ : \check{s}\ \check{i}\ n\ l\ a\ r$, $g\ \check{i}\ y\ \check{i}\ m + l\ o\ r = g\ \check{i}\ y\ \check{i}\ m\ l\ o\ r$, $\check{i}\ n\ o\ k + l\ o\ r = \check{i}\ n\ o\ k\ l\ o\ r$; 2) atoqli otlarga qo‘shilib, ko‘plik qo‘shimchasi orqali o‘xshashlik, aloqadorlik, jamlash otlarini yasaydi: $J\ddot{u}\ m\ o\ g\ddot{u}\ l + l\ o\ r = J\ddot{u}\ m\ o\ g\ddot{u}\ l\ l\ o\ r$, $Q\ddot{o}\ v\ u\ l + l\ a\ r = Q\ddot{o}\ v\ u\ l\ l\ a\ r$, $I\ v\ r\ a\ y\ \check{i}\ m + l\ a\ r = I\ v\ r\ a\ y\ \check{i}\ m\ l\ a\ r$, $S\ o\ v\ \ddot{u}\ n\ d\ \ddot{u}\ k + l\ o\ r = S\ o\ v\ \ddot{u}\ n\ d\ \ddot{u}\ k\ l\ o\ r$, $M\ o\ m\ o\ t + l\ o\ r = M\ o\ m\ o\ t\ l\ o\ r$; 3) otlarga qo‘shilib, hurmat ma’nosini ifodalaydi: $e\ n\ o\ m + l\ o\ r = e\ n\ o\ m\ l\ o\ r$, $o\ t\ o\ m + l\ o\ r = o\ t\ o\ m\ l\ o\ r$, $d\ e\ y\ z\ a\ m + l\ a\ r = d\ e\ y\ z\ a\ m\ l\ a\ r$, $b\ e\ y\ \check{c}\ o\ m + l\ o\ r = b\ e\ y\ \check{c}\ o\ m\ l\ o\ r$; 4) ot va olmoshlarga qo‘shilib, -lar ko‘plik qo‘shimchasi tarkibida egalik qo‘shimchasi bilan kelib, piching, kesatish kabi ma’nolarni bildiradi: $o\ z + l\ o\ r + \check{i} = o\ z\ l\ o\ r\ \check{i}$, $g\ o\ z + l\ o\ r + \check{i} = g\ o\ z\ l\ o\ r\ \check{i}$, $x\ a\ t\ \check{i}\ n + l\ o\ r + \check{i} = x\ a\ t\ \check{i}\ n\ l\ o\ r\ \check{i}$, $o\ \check{g}\ l\ a\ n + l\ a\ r + \check{i} = o\ \check{g}\ l\ a\ n\ l\ a\ r\ \check{i}$; 5) shevada mavhum otlarga qo‘shilib, ma’noni kuchaytiradi: $d\ \check{i}\ l + l\ o\ r + \check{i}\ m = d\ \check{i}\ l\ l\ o\ r\ \check{i}\ m$, $\check{i}\ \check{c}\ + l\ a\ r + \check{i}\ m = \check{i}\ \check{c}\ l\ a\ r\ \check{i}\ m$, $k\ o\ l\ l\ o\ + l\ o\ r + \check{i}\ m = k\ o\ l\ l\ o\ l\ o\ r\ \check{i}\ m$, $a\ y\ a\ q + l\ a\ r + \check{i}\ m = a\ y\ a\ q\ l\ a\ r\ \check{i}\ m$ kabi. Bundan tashqari, o‘g‘uz o‘zbek shevalarida *tur*, *xil*, *ta’kid* va boshqa ma’nolarni ham bildiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘uz o‘zbeklari nutqida qo‘llaniladigan ko‘p ma’noli affikslar adabiy til variantlariga nisbatan fonetik va morfologik jihatdan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning shakllanishi va faol qo‘llanishida singarmonizm qonuniyatlarining ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur affikslar uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan semantik imkoniyatlarini saqlab qolgan holda, hozirgi o‘g‘uz shevalarida ham faol morfologik birlik sifatida yashab kelmoqda. Ularning hozirgi holati affiksal tizimning tarixiy uzluksizligi va dialektal muhitda barqaror rivojlanishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘g‘uz shevalarida so‘z yasovchi hamda lug‘aviy shakl yasovchi affikslar faqat yangi leksik birliklar hosil qilish bilangina cheklanmay, balki turli grammatik va lug‘aviy ma’nolarni ifodalashda ham muhim funksional yuklamani bajaradi. Ayrim affikslarning bir nechta semantik vazifani amalga oshirishi affiksal polisemiya hodisasining o‘g‘uz shevalarida tizimli va muntazam xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat affikslarning morfologik birlik sifatidagi chegaralarini kengaytirib, ularning semantik-funksional imkoniyatlarini mustaqil ilmiy obyekt sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Shuningdek, bugungi kunda o‘g‘uz shevasida so‘zlashuvchi aholi nutqida mazkur affikslarning muayyan fonetik shakllarda saqlanib qolishi va faol qo‘llanishi adabiy til bilan

dialekt o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, dialektizmlarning shakllanish hamda taraqqiyot jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslash uchun muhim empirik manba vazifasini bajaradi. Bu jarayon affikslarning faqat tarixiy qoldiq emas, balki hozirgi til tizimida ham faol ishtirok etayotgan birliklar ekanini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotda o‘g‘uz shevalarida uchraydigan affiksial birliklarning polisemantik xususiyatlari semantik-funksional nuqtayi nazardan yoritilib, ularning ichki ma‘no qatlamlari aniqlandi va ilmiy asosda tasniflandi. Olingan natijalar o‘zbek dialektologiyasi, so‘z yasalishi nazariyasi hamda affiksial polisemiya masalalarini yanada chuqurroq va tizimli o‘rganish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hammualliflar. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1975.
2. Mirtojdiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975.
3. Shoabdurahmonov Sh., Askarova M. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975.
4. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
5. Allaberdiyev A. Buxoro o‘g‘uz shevalari leksikasi. Monografiya. – Navoiy: Aziz kitobxon, 2023.
6. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. I-V jildlar.
8. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
9. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1991.
10. Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961.